ANVAR LUTFULLAYEV

XALQ CHOLG‘ULARIDA O‘QITISH USLUBIYOTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

ANVAR LUTFULLAYEV

XALQ CHOLG‘ULARIDA O‘QITISH USLUBIYOTI

Oliy va o‘rta maxsus, madaniyat va san’at o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2010

Mas'ul muharrir:
D.A.MURODOVA – san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.

Taqrizchilar:

M.X.TOIROV – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori,

B.X.RAHIMJONOV – O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori

O'zbekiston davlat konservatoriyasining Ilmiy-uslubiy Kengashi (2009-yil, 21-may, 6-bayonnomasi) tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mazkur o'quv qo'llanma madaniyat instituti, pedagogik oliy o'quv yurtlarining musiqa fakulteti talabalari, shuningdek, madaniyat va san'at kollejlari hamda akademik litsey o'quvchilari uchun ham mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma «Mutaxassislik», «Ijrochilik san'ati tarixi», «Ixtisoslik», «Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti», «Ijrochilik amaliyoti» va «O'qituvchilik amaliyoti» fanlari bo'yicha dars berish jarayonlarida qo'shimcha manba sifatida foydalanish uchun ham tavsiya etiladi.

ISBN 978-9943-307-48-3

© A.Lutfullayev, 2010
© «Musiqa» nashriyoti, 2010.

SO‘ZBOSHI

Ushbu o‘quv qo‘llanma 2005-yil A.Lutfullayev va T.Solomonovalar tomonidan yaratilgan «O‘zbek xalq musiqa cholg‘ulari» nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmaning davomiy qismlaridan biridir. Yuqorida zikr etilgan o‘quv qo‘llanmani yozishdan ko‘zlangan maqsad oliy ta’lim muassasasi talabalariga o‘zbek xalq musiqa cholg‘ularini o‘qitish uslubiyoti va tarixi bo‘yicha yaratilgan mavjud adabiyotlar haqida ma’lumotlar berib, talabalar bilimlarini chuqurlashtirishdan iborat edi.

Umuman olganda, bugungi kunda o‘zbek xalq musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan bir qancha o‘quv-uslubiy va uslubiy adabiyotlar mavjud. Chunki bu, bir tomondan, maxsus soha bo‘lib, uning asosini chuqur o‘rganish kerakligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xalq cholg‘u asboblari turlarining nihoyatda ko‘pligidir.

Oliy o‘quv yurtlarida, madaniyat, san’at va musiqa kollejlarida, maxcyc akademik litseylarda hozirgi davrda 16 xil ko‘rinishdagi cholg‘ular ijrosi bo‘yicha tayyorgarlik olib boriladi.

Bu o‘quv va tarbiyaviy yo‘nalishda, har bir ixtisoslik va mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘qituvchining vazifasi – bo‘lajak sozanda-ijrochini cholg‘uda ijrochilik ko‘nikmalariga o‘rgatibgina qolmay, balki o‘zlashtirilayotgan asarni ham texnik, ham badiiy jihatdan chuqur his qilishni, dunyoqarashini shakllantirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun esa, o‘qituvchilik faoliyatining to‘g‘ri tashkil qilinishi muhim omil hisoblanadi. Mashg‘ulotlarda asardagi har bir tovushga, har bir texnik ijrochilik uslubiga alohida e’tibor berilish asarning shaklini, mazmunini, mohiyatini, badiiy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, bilish va pirovardida, asarni yuqori darajada mahorat bilan ijro etish – bu yosh sozanda-ijrochi dunyoqarashlarining yorqin ifodasidir.

Hozirgi vaqtda xalq cholg‘ulari asboblarini o‘qitish uslubiyotining asoslari yetarli darajada ishlab chiqilgan bo‘lmasa-da, lekin o‘qituvchilar uchun amaliy faoliyatda asos bo‘la oladigan cholg‘uning tarixi, ijro holatlari, ijro uslublari haqidagi ma’lum bir vazifa va tavsiyalar darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarda hamda to‘plamlarda mavjuddir.

Ammo shunga qaramay, darsliklarda ham, o‘quv-uslubiy adabiyotlarda ham, xalq cholg‘ulari sinfida dars beruvchi o‘qituvchi-ijrochilar uchun shu paytgacha zamonaviy talablarga ko‘ra kasbiy o‘qitish muammolari yetarli darajada o‘z yechimini topmagan.

Har bir cholg‘u o‘z shakli va konstruksiyasiga egadir, cholg‘ularda ijro uslublari turlichadir, ammo ijrochining texnikasini shakllantirish asosida qo‘l va barmoqlar harakati yotadi. Bu esa yelkaga, badanga, oyoqqa, qo‘l va barmoqlarning harakatiga bog‘liqdir.

Masalan, chang cholg‘usida ijro texnikasini shakllantirishda barmoqlar tezkorligi ustida ishlashning keragi yo‘q, doira ijrochiligida esa, aksincha, qo‘l harakatlari boshqa ko‘rinishda bo‘ladi. Mizrobli cholg‘ular ijrochiligida chap qo‘l barmoqlarining harakati gorizontal ko‘rinishda, kamonli cholg‘ular ijrochiligida esa vertikal ko‘rinishda olib boriladi. Shuning uchun ijrochilik harakatlari shakllanish tamoyillarini har bir cholg‘uga nisbatan o‘ziga xosligi bilan alohida, batafsilroq ko‘rib chiqish kerak.

Xalq cholg‘ulari bo‘yicha dars beruvchi o‘qituvchilarning ayrimlari asosiy e’tiborni o‘quvchining musiqiy rivojlanishiga qaratadi, lekin uning ijro harakatlari ustida kamroq ishlashadi. harakat erkinligi faqat ijro texnikasini egallashgina emas, balki sifatli tovushni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi, bu esa o‘z navbatida, kerakli, o‘ziga xos bo‘lgan ijrochilik uslubini yaratishga olib keladi.

Ko‘pgina xalq cholg‘ulari yo‘nalishi bo‘yicha nashr qilingan darsliklarda, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda asosan zarur ijro harakatlarini shakllantirishga, ijro holatiga katta e’tibor qaratilgan, ularda amaliy tavsiyalardan tashqari nazariy ko‘rsatmalar ham ishlab chiqilgan.

Xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha dars beruvchi o'qituvchilar boshqa turdagi cholg'ular, masalan, skripka, violonchel, fleyta, valtorna, balalayka, do'mbra va boshqa cholg'ular uchun yozilgan darsliklar, qo'llanmalardan foydalanishmoqda. Bu esa, albatta foydadan xoli emas, chunki xalq cholg'ulari ijrochilarida ularning individual sifatlarini ochib berishga, texnik mahoratlarini oshirishga yordam beradi.

Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti va cholg'ularning tarixi haqidagi mazkur o'quv qo'llanma respublikamizda nashr etilgan qo'llanmalar qatoridan o'rin oladi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Ushbu o'quv qo'llanma, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, «O'zbekiston musiqa ilmining bo'lagi sifatida» rukni ostidagi kelajakka rejalashtirilgan kitoblarning davomiy qismlaridan biri ekanligi uchun ham, men muallif sifatida chang ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha mutaxassis bo'lganligim tufayli, alohida qism, ya'ni «Changda ijrochilik uslublari» sarlavhasi ostida, ko'p yillik o'qituvchilik tajribamga tayangan holda, o'z kuzatishlarimni yoritishga urindim. Shuningdek, o'quv qo'llanmaning badiiy qismiga changchilar dasturiga mos musiqiy asarlar kiritilgan. Qolgan qismlari esa, o'zbek xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti, milliy cholg'ular tarixi va musiqiy pedagogika masalalariga bag'ishlangan.

Hozirgi paytda musiqiy pedagogikaning asosiy vazifasi – musiqiy madaniyatni ommalashtiruvchi, yuqori malakali sozanda-ijrochilarni tayorlashdan iboratdir.

Changda ijrochilik uslublari

Chang ijrochiligining rivojlanishi, takomillashtirilishi unda badiiy asarni ijro etish texnikasini egallash darajasi – oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan nazariy bilimlarini, mahoratlarini oshirishnigina emas, balki ijrochilik uslubiy muammolarga ham katta e'tibor berishni talab etadi. Asosiy masala changda ijrochilik san'ati uslublarini asta-sekin va mustahkam egallashga borib taqaladi.

Chang ko'pgina boshqa xalq cholg'ulari singari akademik konsert cholg'usiga aylandi, yangi ijrochilik uslublari uning ifodalilik imkoniyatlarini ancha boyitdi, ijrochilik mahoratini oshirdi, repertuarini kengaytirdi.

Changda yaxshi tovush chiqishi – cholg'uning sifatiga bog'liqdir, shuningdek, uni sozlashda cholg'u simlarining bir xilligiga va quloqlarining tengligiga e'tiborni qaratish lozim.

Changda yaxshi musiqa ijro etishning muhim shartlaridan yana biri, bu cholg'u oldida o'tirish holatidir. Changning balandligi o'tirgan ijrochining qo'l tirsagidan oshmasligi kerak. Stulning balandligi va chang bilan oradagi masofa ijrochining bo'yi va qo'llari uzunligiga mos bo'lishi kerak.

Zamonaviy changlar hozirda yaxshi o'rnatilgan so'ndiruvchilar, korpus ichidagi pedal mexanizmi va oldingi oyoq pastki qismiga o'rnatilgan lapkadan tuzilgan.

Pedaldan foydalanish texnikasi tovush chiqarishni yaxshilash, tozalash, kuyni yaxshiroq ijro etish, arpedjio va ikkitalik notalarni ijro etish imkoniyatini beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tovush jarangining tembri, cho'plarning torlarga urilgan zarblariga bog'liq. To'liq va quyuq tovush chiqarish uchun cho'plar bilan xarraklar ustiga o'rnatilgan chang simlari orasidagi masofa kamida 3-4 sm tepalikdan urilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Urma zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir. Cho'plar bilan torlarga urilganda chuqur, to'la tovush chiqishi kerak. Zarb qanchalik erkin bo'lsa, torning jarangi shunchalik yorqin bo'ladi.

Torlarni o'ng yoki chap qo'l bilan chertish quyidagicha belgilanadi:

P – o'ng qo'l zarbi;

V – chap qo'l zarbi;

PV – ikkala qo'lda baravariga zarb.

Tremolo – *tremolo* – (rez) - ikkita cho'p yordamida uzluksiz, tez zarblarning ketma-ketligidir.

Changda uzluksiz tovushni faqat ikkita qo'lning erkin harakatida tremolo uslubi yordamida chiqarish mumkin, yuqori, sifatli tovush hosil qilish uchun esa ijrochi bir tekis va erkin zarbga erishishi kerak.

Changda tremolo uslubini ikkitalik notalarda ijro etish imkoniyati ham bor.

Legato – *legato* – (bog'lama) - tordan torga sezilmas uzluksiz tremolo yordamida ehtiyotlik bilan o'tish uslubidir.

Legatoda bir nafasda bir necha notani ijro etish mumkin. Bilaklar harakati nihoyatda erkin bo'lishi kerak. Legato bir tekis uzluksiz tovush jarangini ta'minlab berish bilan birga, ijro etilayotgan asarga o'ziga xos bo'yoq beradi.

Cho'p chertmoq – *pitss. col legno* – cho'pning tekis bo'lgan orqa yassi qismi bilan torlarni tirnab chertish yordamida hosil qilinadi. Bu uslubga o'tilganda cho'plarni yuqoriga o'girib, bosh va ko'rsatkich barmoqlar yordamida siqiladi. Chertish xuddi zarbga o'xshab ijro etiladi.

Barmoq chertmoq – *pitssicato* – uslubida torlarga barmoqlar bilan mayin chertiladi. Bu uslub amaliyotga chang ijrochiligining takomillashuvi natijasida kiritildi. Changda *pitssikato* quyidagicha ijro etiladi: ikkita qo'l barmoqlari bilan ikki va undan ko'p tovushlarni chertish; qo'llarning birida bittadan to uchtagacha tovushlarni chertish; bir vaqtning o'zida bitta qo'lda chertib, ikkinchi qo'ldagi cho'pda esa zarb berish yoki chertish ham mumkin. Barmoq chertmoq uslubi chang ijrochiligini ifodaviy va texnik jihatdan boyitdi.

Пиццикато – *pitssikato* – uslubida bemalol uch, to'rt, olti tovushdan iborat akkordlarni ijro etish mumkin. *Pitssikato* ijrosi ***pp*** dan to ***p*** gacha bo'lgan jarang dinamikasini chegaralaydi. To'rt tovushli akkordda katta va o'rta barmoqlar qatnashadi. Olti tovushli akkordda katta, o'rta va kichkina barmoqlar ishlatiladi. Ochiq pedalda tovushlar uzoq vaqtgacha tinmaydi. Garmoniyani o'zgartirganda pedal mexanizmidan foydalanish kerak. *Pitssikato* uslubini chang diapazonining ixtiyoriy bo'lagida ijro etish mumkin, lekin uni changning o'rta registr qismida qo'llash qulayroqdir.

Urma-zarb – *staccato con sordino* – uslubida bir qo'l bilan torga berilgan zarbni bir zumda ikkinchi qo'l barmog'i bilan tovush ohangi so'ndiriladi. Bu uslub yordamida tovush jarangining odatdagi uzunligi kamaytiriladi, tovush yumshatilib, kuchsizlantiriladi.

Urma-zarbni, odatda, birinchi pastki registr, ya'ni **kichik oktava soldan, birinchi oktava fa#gacha** bo'lgan diapazonda qo'llash tavsiya etiladi. O'rta va yuqori registrlarda tovush qo'polroq chiqadi, ammo ijrochilik amaliyotida undan ham ba'zida foydalaniladi.

Cho'p tarak – *col legno* – uslubida cho'pning ikkinchi yassi, yalang qismi bilan torlarga zarb beriladi. Bu esa shovqin effektini beradi. Bu uslubni ijro etayotganda bilaklar va cho'plar zarbdan keyin bir zumda torlardan qochishi kerak. Shundagina jarangli uzluksiz tovush hosil bo'ladi. Bu uslub birinchi marta S.Boboyevning xalq cholg'ulari orkestri bilan ijro etgan «Konsertino» asarida qo'llanilgan. Cho'p tarak changning o'rta registrida juda yaxshi jaranglaydi. Ikkilangan notalar, tremolo, legato, turli arpedjiolarni ham ijro etish mumkin. Tovushlarni ijro etishda imkon qadar ***p*** yoki ***mp*** da ijro etish maqsadga muvofiqdir.

Tebratma – *vibrato* – (vibratsiya) uslubida qo'l barmoqlari bilan torga zarb berilgandan so'ng ikkinchi qo'l barmog'i bilan asta-sekin tebratiladi. Bu uslubning odatda, cho'p tarak uslubi bilan birgalikda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Cho'p-chizma – *glissando col legno* – (glissando) uslubida bir tordan boshqasiga cho'pning yassi tomoni bilan kerakli tovushgacha sirg'anib o'tiladi. Bunda notalar uzunliklariga qarab, tez yoki sekin templarda xromatik yo'llar hosil bo'ladi. *Glissando*ni bir vaqtning o'zida ikkita qo'lda cholg'uning butun diapazonida ijro etish ham mumkin. O'ng qo'l boshlaydi, chap qo'l davom ettiradi va aksincha.

Sakratma-zarb – *staccato* – (stakkato) uslubida o'ng va chap qo'llarda cho'plar torlarga yengil va tez zarb berilishi natijasida tovush hosil qilinadi. Zarbdan so'ng aniq bo'lingan aksentli tovush hosil bo'ladi. U bitta tordan yoki bir tordan boshqasiga o'tilayotganda ham ijro etilishi mumkin.

Terma zarb – *arpejio* – (arpedjio) uslubini changning butun ijro diapazonida qo'llash mumkin. Ayniqsa garmonik akkordlar changda yaxshi jaranglaydi. Changdagi arpedjio ijrosi rus xalq cholg'usi - jarangdor guslini eslatadi.

Bu ijro uslublarini amaliyotda qo'llash va o'rganish ijrochi-changchilarning kasbiy mahoratini o'stirishiga yordam beradi.

Umuman olganda, har bir cholg'uda ijrochilik san'ati sirlarini o'rganishda boshlang'ich davrning o'zidayoq - o'tirish holatlariga, ijro ko'nikmalariga va cholg'uning o'ziga xos uslublarini egallashga muhim ahamiyat bergan yosh sozanda-ijrochining kelajagi porloqdir. Shuningdek, ijrochi musiqiy asarni o'zlashtirishda, uning badiiy jihatlarini ro'yobga chiqarishda albatta, musiqani eshitishga, asarning intonatsiyasiga, dinamikasiga alohida e'tibor berishi lozim. Shuning uchun ham musiqa asarini yuqori san'at darajasiga olib chiqishdagi bir necha xususiyatlar haqidagi fikrlarni yoritish maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy eshitishning ahamiyati

Ma'lumki, musiqiy eshitishning faolligini nozik musiqiy eshituv hissiyotlarisiz, taassurotlarisiz na musiqani ijro etish mumkin, na uni to'g'ri qabul qilish mumkin. Rivojlangan musiqiy eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan insongina musiqiy tovushlarni qabul qilishi, eslab qolishi, ko'z oldiga keltirishi va ijro etishi mumkin. Bu fazilatlar qanchalik yorqin namoyon bo'lsa, musiqiy eshitish qobiliyati shunchalik o'tkir bo'ladi. Musiqiy eshitish qobiliyati **nisbiy** va **absolyut**ga bo'linadi.

Nisbiy eshitish qobiliyati yordamida berilgan tovushlar balandligini aniqlash uchun tovushlarni etalondagisi bilan taqqoslash kerak. **Absolyut eshitish qobiliyati** yordamida bunday taqqoslashlarsiz tovush balandligini aniqlash mumkin.

Absolyut eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan sozanda musiqani tinglashdan oldin har bir tovush balandligini aniqlay oladi. Ammo sozandada bunday qobiliyat yo'qligi, uning yaxshi ijrochi bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, nisbiy eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan sozandalar ham juda katta ijrochilik mahoratiga erishishlari mumkin. Buning uchun ijrochining musiqiy eshitish qobiliyati nozik va egiluvchan bo'lib, doimiy rivojlanish va takomillashuv jarayonida bo'lishi kerak. Musiqiy eshitishning fiziologik asoslarini o'rganish insonning eshitish apparatiga bog'liq. Tibbiyot sohasi mutaxassislarining fikriga ko'ra, inson qulog'i murakkab organ bo'lib, u tovush to'lqinlarini nerv impulslariga aylantirib, bosh miyaga uzatadi. U uch bo'limga bo'linar ekan:

a) tashqi quloq va uning o'zi: quloq chig'anog'i va tashqi eshitish yo'lidan;

b) o'rta quloq va uning o'zi: baraban bo'shlig'i, eshitish suyaklari tizimi va eshitish trubkasidan iborat. Tashqi quloq o'rta quloqdan baraban pereponkasi bilan ajratilgan;

d) ichki quloq labirint kabi bo'lib, uning asosiy qismlaridan biri ulitka va kortiyev organidir. Ular eshitish hujayralari va ularga ulangan eshitish nervidan iborat.

Bu uch bo'lim o'z faoliyatiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi: tashqi va o'rta quloqlar tovushni uzatadi, ichki quloq esa tovushni qabul qiladi.

Ichki quloqda uzatilgan tovush to'lqinlari eshitish hujayrasining nerv to'qimalariga ta'sir qiladi. Bu ta'sirlar bosh miyaga uzatilib, ma'lum eshitish hissiyotlarini hosil qiladi. Chunki bosh miyada bu ishni bajaruvchi eshitish analizatori mavjud bo'lib, u bu ta'sirlarni analiz va sintez qiladi.

Talabaning shakllanishida o'qituvchining o'rni

Hozirgi kunning musiqiy pedagogikasi – jahon musiqiy pedagogika ilmi rivojining yangi davridir. Uning asosini yangi, bugungi kun o'quv tizimining talabiga javob beradigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar tashkil qiladi. U esa, o'z navbatida, ilmiy-ijodiy uslubga asoslanadi, yangi tajribalarni umumlashtiradi, fan va madaniyat sohasining erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Keng dunyoqarashga ega bo'lgan o'qimishli, har taraflama kamol topgan insonni tayyorlash – uning asosiy maqsadidir.

Musiqiy pedagogika – eng insoniy, oliyjanob, shu bilan birga, murakkab insoniy faoliyatdir. O'qituvchilik – bu ijodiy kasbdir. O'qituvchi bilan talaba orasidagi muloqot, bu insonlar orasidagi muloqotning eng go'zal shaklidir. Bu haqda Neygauz: «Agar men o'z o'quvchilarimga u bu narsa bergan bo'lsam, ular o'z navbatida menga kam narsa bermadilar. Buning uchun men ulardan nihoyatda minnatdorman. Chunki san'atni bilish va o'rganishdagi umumiy intilishlarimiz do'stligimizga asos soldi, bir-birimizga yaqinlikka, hurmatga o'rgatdi va bu hissiyotlar dunyodagi his qilish mumkin bo'lgan narsalarning eng oliyjanobidir», – degan edi.

Musiqiy pedagogika bilan shu kasbga iqtidori bo'lgan insonlar shug'ullanishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilik kasbi insondan yuqori etik fazilatlarni talab qiladi. Bu jihatdan o'qituvchilik kasbini tibbiyotchilik kasbi bilan solishtirsa bo'ladi.

O'qituvchi talabaga nisbatan har doim to'g'ri so'z bo'lishi kerak. O'qituvchilik kasbi – uzluksiz ijodiy jarayondir. Bu kasbning murakkabligi yana shundaki, natija ancha keyin ko'rinadi. O'qituvchilik kasbi chuqur va keng ko'lamli bilimlarni bilishni talab qiladi. Shuning uchun hamisha yoshlarni tarbiyalash eng aqlli, bilimdon insonlarga topshirilgan.

Yaxshi o'qituvchi, birinchi navbatda, o'z cholg'usida mukammal ijro eta bilishi kerak. Ammo shu bilan birga, shuni e'tirof etish kerakki, yaxshi cholg'uchi bu hali yaxshi o'qituvchi, degani

emas va o'rta miyona cholg'uchi esa yomon o'qituvchi ekan, degani ham emas. Ushbu holat o'qituvchilik tajribasida ko'p uchragan tabiiy holdir.

Iste'dodli o'qituvchi tomonidan boshqarilayotgan sinf bu ijodiy laboratoriya, ijodiy ustaxonadir. Talabalarga bilim berish bilan birga, o'qituvchining o'zi ham o'rganadi, izlanadi. Buning natijasida u quruq ijrochilik bilan shug'ullanuvchi musiqachiga nisbatan keng ko'lamli bilimlarga ega bo'ladi. Ammo ayni bir paytda, ijrochilikning ahamiyatini ham kamaytirish yaramaydi. Ijrochilik bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi tinimsiz o'sadi, ijrochilikning badiiy va texnik mahoratlarini kamolga yetkazish uchun yangi yo'llarni izlaydi. Bu esa uning o'qituvchilik faoliyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'qituvchi pedagogik, ya'ni didaktik fazilatlarga ega bo'lishi va o'z bilimlarini talabalarga o'rgata bilishi kerak. U keng ko'lamdagi pedagogik bilimlarini va o'qitishning zamonaviy uslublarini egallashi kerak. O'qituvchi yaxshi musiqachi bo'lish bilan bir qatorda, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi, adabiyot, rassomchilik va san'atning boshqa turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. U to'g'rilik va hozirjavoblik, haqqoniylik va prinsipiallik, kuchli iroda va tashkilotchilik fazilatlari bilan ham o'z o'quvchilariga namuna bo'lmog'i lozim.

Bu fazilatlar bilan bir qatorda, o'qituvchi talabaning individualligini ko'ra bilishi va uni rivojlantira olish qobiliyatiga alohida e'tibor berishi zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bitta sinfda har tomonlama bir xil ikkita talaba bo'lmaydi. Talabalarning har biriga yakka tarzda yondoshib, ularning iste'dodini rivojlantirish kerak. Biri uchun ma'qul bo'lgan uslub, ikkinchisi uchun qiyinroq bo'lishi mumkin, chunki ularning anatomo-fiziologik hamda psixik xususiyatlari, musiqiy qobiliyatlari har xildir. Shundan kelib chiqib, ijrochilik apparatini shakllantirishga yagona uslubni ishlab chiqish mumkin emas.

Talabalarning psixik va nerv faoliyatlarining ishlashi turlichadir. Katta tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar o'z talabalarini nihoyatda yaxshi o'rganib, ularning har biriga mos yondashishga harakat qiladilar.

Talabaga yakka tarzda yondashishning tashqi shakli bu talabada ijodiy individuallikni tarbiyalashdir. Bir sinfda o'qiyotgan talabalarning bir-birlaridan farq qilishlari aniq. Buni o'qituvchi avvaldan payqashi, to'g'ri rivojlantirishi va individuallikning namoyon bo'lishiga ko'maklashishi kerak.

Ma'lumki, musiqiy ijrochilik darslari yakka tarzda o'qitish tizimi bo'yicha olib boriladi. O'qituvchi har bir talaba bilan dars davomida muloqotda bo'lib, uning rivojlanishini tizimli kuzatish, ta'lim natijalarini bilish, bu jarayonni boshqarish imkoniga egadir. Musiqiy ijrochilik darslarini o'tkazishning turli shakllari mavjud. Ular orasida eng ko'p tarqalgan shakllardan biri uch qismdan iborat bo'lgan umumlashgan shaklidir, ya'ni:

a) talabaning mustaqil ishini tekshirish;

b) mustaqil ish kamchiliklarini ko'rsatish, tuzatish va talabaga yangi bilimlarni o'rgatish;

d) navbatdagi topshiriqni aniqlashtirish.

Ba'zi bir o'qituvchilar darsning birinchi qismiga yetarlicha ahamiyat bermaydilar. Bu noto'g'ri. Chunki bu qism uy vazifasi va sinf ishini bir-biri bilan bog'lab, bir butun jarayonni hosil qiladi. Tekshiruv talabaning mustaqil faoliyatini boshqarish, ijrochilik mahoratini faollashtirish imkonini beradi. Doimiy tekshiruv, faoliyatni baholash, talabani tizimli ishlashga undaydi, uning xarakterida kasbiy fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tekshiruv asosida tartiblashtiruvchi tekshiruv g'oyasi yotadi. Shu bilan birga, mohirlik bilan o'tkazilgan tekshiruv talabaning o'zlashtirgan bilimlarini, ijrochilik ko'nikmalarini mustahkamroq egallashga yordam beradi. Tekshiruv kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi.

Tekshiruvni diqqat va tantanavorlik ruhida o'tkazish kerak. Ijroni bo'lib, talabani to'xtatish yo'li bilan, unga xalaqit berish mumkin emas. O'qituvchi talabani diqqat bilan tinglab, hamma narsani eslab qolishga harakat qilishi lozim. Bu talabaga oxirigacha o'z fikrini mustaqil ifodalash va javobgarlik hissini ko'tarish imkonini beradi.

Darsning ikkinchi qismi davomiyligi va ahamiyati bo'yicha markaziy qism hisoblanadi. O'qituvchi talaba ijrosini to'liq tahlil qiladi, kamchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi. Talabaning e'tiborini avval eng muhim, bosh muammoga qaratishi kerak. Keyingi darslar davomida ikkinchi darajali kamchiliklar bartaraf etilishi kerak. Kamchiliklar bilan bir qatorda, talaba erishgan yutuqlar ham ko'rsatilishi kerak, albatta.

Bu qismda tahlil va mustaqil ishni baholash bilan birga, o'qituvchi talabaga yangi bilimlarni o'rgatadi, yangi ijro ko'nikmalarini shakllantiradi, eskilarini takomillashtirib, mustahkamlaydi.

Dars talabaga ma'lum axborotlarni beribgina qolmay, balki uning oldiga ma'lum bir vaziflarni ham qo'yadi. Talaba olgan bilimlarini solishtirishi, tahlil qilishi, umumlashtirishi kerak. Buning natijasida talaba o'z tushunchalarini hosil qilishga ega bo'lishi kerak.

Ustalik bilan o'tkazilgan dars nihoyatda yaxshi yakunlanishi kerak. Darsning uchinchi qismi oldingi mashqlarga yakun yasashga va yangi mashqlarni aniqlashga bag'ishlanadi. Bu mashqlar talabaning kuchiga mos bo'lishi va sekin-asta murakkablashishi tartibida bo'lishi kerak. Ayrim vaziyatda uy vazifasining ba'zi elementlarini biroz mashq qilish ham mumkin.

Ammo bu uslub o'qituvchini bir qolipga solib qo'ymasligi, darslarining bir-biriga o'xshamasligi, ijodiy rivojlantirib turishi kerak.

Ba'zi bir o'qituvchilar o'z darslarini texnik va badiiy darslarga ajratadilar. Birinchisi, materialni o'rganishga bag'ishlansa, ikkinchisi, jo'rnavoz yordamida badiiy asarlar ustida ishlashga bag'ishlanadi. Buning natijasida o'qituvchi va talaba diqqatini intonatsiya, ritm, tovush madaniyati, shtrixlar kabi turli xil ijrochilik muammolari jalb qiladi.

Ko'pgina o'qituvchilar ta'limning «monodars» shaklidan ham foydalanadilar. Bunday darslar ma'lum bir vazifani hal qilishga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday darsga imtihon oldidan o'tkaziladigan nazorat darsini misol qilish mumkin.

Darsning mazmuni va shakli talabaning individualligiga, uning yoshiga, imtihonning yaqin-uzoqligiga qarab o'zgarishi mumkin.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bolalar musiqa maktablari, akademik litsey va musiqa kollejlari yoki konservatoriyada darsni o'tkazish uslublari bir-biridan keskin farq qiladi.

Darsni tashkil qilish va o'tkazish uslublari har bir o'qituvchi uchun individualdir. Bu jarayonda musiqiy pedagogikaning kamolotga cheksiz intilishi o'z aksini topadi.

Dars vaqti chegaralangandir. Uni tejamli va samarali o'tkazish uchun o'qituvchi oldindan tayyorgarlik ko'rishi, ya'ni oldindan o'quv dasturlarini, badiiy va musiqiy materiallarni, o'quv adabiyotlarni o'rganishi kerak. Yakka ish rejalarini tuzishi shart. Ular har yarim yilga tuzilib, talaba shu yarim yil ichida bajarishi shart bo'lgan barcha ishlarni qamrab olishi lozim. Masalan:

1. O'quv dasturi talablariga javob berish.
2. Talabaning individual tomonlarini hisobga olish.
3. Murakkablikning izchil o'sib borishini ta'minlash.
4. O'rganilayotgan musiqiy asarlarning badiiyligini, shaklini va xususiyatlarini hisobga olish.
5. Ijrochilik mahoratining hamma uslublarini qamrab olib, garmonik tarzda rivojlanishini ta'minlash.
6. Talabaning xohish va qiziqishlarini hisobga olishi va shu kabi talablarga tayyorgarlik ko'rish.

Reja tuza turib, o'qituvchi o'quv jarayonining umumiy zanjirida talabaning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirishi, uning maqsadi va boshqa darslar bilan o'zaro aloqasini aniqlashi shart. Darsning mazmunini, uni tashkil qilish shaklini va o'tkazish uslubini aniqlashi kerak. Talabaga beriladigan musiqiy asarni o'zi o'rganishi, tegishli bo'lgan hamma ma'lumotlar bilan tanishib chiqishi kerak. Shu vaqtning o'zida talabaga beriladigan uy vazifalarini oldindan rejalashtirishi kerak.

O'qituvchining badiiy ish faoliyati izlanuvchanlikni talab qiladi. Iqtidorli o'qituvchi o'rgatibgina qolmay, balki dars jarayonida o'zi ham o'rganib boradi. Ana shu jarayonda o'qituvchining individual ish uslubi, uning mahorati shakllanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi ta'limning turli uslublaridan foydalanadi: og'zaki tushuntirish, asarni ijro etish, kuylash, dirijyorlik qilish va hokazo.

Bu uslublar ichida dirijyorlik – ayniqsa samaralidir. Dirijyorlik o'zining emotsionalligi, talabalarni qiziqtira olishi bilan o'qituvchilar e'tiborini o'ziga tortadi. Bu uslubning yutuqli tomoni shundaki, uning yordamida talabaga ijro vaqtida uni bo'lmasdan, to'xtatmasdan ta'sir qilish mumkin. Ba'zi bir o'qituvchilar dirijyorlikni kuylash bilan birgalikda olib borishadi, bu uslub esa yanada foydalidir.

Yana katta ta'sirga ega bo'lgan uslublardan biri, o'qituvchining ijrosidir. Ammo bu usul qo'llanilayotgan vaqtda talabaning o'qituvchi ijrosidan nusxa ko'chirishiga yo'l qo'yish kerak emas. Bu uslub talabaning ijroni tushunishiga, bilishiga ketadigan vaqtini qisqartiradi, xolos.

Ammo eng keng tarqalgan, soddagina ta'sir kuchiga ega bo'lgan uslub – bu og'zaki, so'z bilan tushuntirishdir. Bu uslubni egallagan o'qituvchi talabaga eng qiyin, murakkab g'oya va tushunchalarni o'rgatishga erishadi. So'z yordamida o'qituvchi badiiy asarning mazmunini, musiqiy ijrochilik san'atining

qonuniyatlarini, ijrochilik apparatining qo'yilishini, texnik ijro uslublarini, talabaning kamchiliklarini ochib berishi mumkin. So'z yordamida katta yutuqlarga erishish mumkin, albatta, uni bilib, me'yorida ishlatilsa, lekin shu bilan birga, bu tushuntirishlar yordamchi xarakterga ega bo'lishi kerak.

Shuningdek, ijrochining emotsionalligiga ham e'tibor berish kerak. Ta'lim jarayonida faqat texnik vositalarga emas, balki emotsional kayfiyatga ham e'tibor berilsa, katta yutuqlarga erishish mumkin. Chunki o'qituvchi o'z sinfida hosil qilgan emotsional muhit yordamida talabani qiziqtirishi, o'z kasbini sevishga o'rgatishi mumkin. O'qituvchi bor kuchini sinfda ijodiy muhitni hosil qilishga harakat qilishi kerak. Asarni o'zlashtirishning boshlang'ich davridayoq jo'rnavoz bilan ishlashi tizimli davom etishi kerak, chunki buning natijasida talaba musiqiy ansambl qonuniyatlarini o'rganadi. Katta ixlos, zavq beruvchi kuch – bu konsert sahnasidir. Talabalar faqatgina akademik konsertlar va imtihonlarda emas, balki har xil turdagi konsertlar, tanlovlarda ishtirok etishlari lozim. O'z kasbiga qiziqish, muhabbat uyg'otish uchun o'qituvchi mashhur musiqachilar, ularning san'ati va hayoti haqida gapirib berishi lozim. Yakka darslar bilan bir qatorda, sinfiy darslar ham alohida ahamiyatga egadir. Bunday vaziyatda talaba kursdoshlarining ijrosini tinglashi, o'qituvchi maslahatlarini eslab qolishi, birgalikda ijro etilayotgan asar ustida ishlashi, fikrlashi, mulohaza yuritishi mumkin.

Fikrimizning yakunida dars olib borish etikasiga ham to'xtalcak. Darslar har doim muntazam olib borilishi, o'qituvchi va jo'rnavoz darsga kech qolmasligi, shu bilan birga, talabaga ham kech qolishga ruxsat bermasligi shart. Talabalarga baqirish, ularni haqoratlash, kamsitish aslo mumkin emas. Hamma talabalarga bir xilda munosabatda bo'lish kerak. O'qituvchi va talaba orasidagi munosabatlarning etik asosini A.Makarenko qo'yidagicha ifodalagandi: «Insonga iloji boricha ko'proq talab va iloji boricha ko'proq hurmat...». Shuning uchun ham o'qituvchi talabaga nisbatan yuqorida keltirilgan talablarga amal qilsa, kelajakda ijobiy natijalarga erishadi hamda kelajakda katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'ladi.

Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti

O'zbek xalq cholg'ularining tarixi qadimdan o'rganilib kelinadi. IX-XVII asrlarda yashab o'tgan O'rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg'ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomlarini, mashhur musiqiy asarlar nomlarini uchratish mumkin.

O'zbek an'anaviy musiqasini yig'ish va o'rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab, keng miqyosda olib borila boshladi. Bu ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishlash bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug'ullanishgan. Birinchi navbatda, bular A.Eyxgorn va F.Leysiklardir. Xususan, A.Eyxgorn turli guruhlarga kiruvchi 36 ta xalq cholg'usidan iborat katalogni tuzgan.

Xalq cholg'ularini yig'ish va o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919-yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo'lim ochiladi va u bu bo'limga rahbarlik qiladi. Bu bo'lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg'ulari kolleksiyasini yig'ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o'rganish bo'ldi.

O'zbek musiqasini o'rganish tarixida keng ko'lamdagi olim, iste'dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir.

V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o'tkazilgan ekspedisiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqa madaniyatini o'rganishi uchun katta turtki bo'ldi.

Musiqa nazariyasini o'rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning o'zbek xalq cholg'ulari rivoji tarixi bo'limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o'lchash ishlari katta qiziqish uyg'otadi.

1933-yili Moskvada V.M.Belyayevning «O'zbekiston musiqiy cholg'ulari» nomli kitobi nashr qilinadi. Unda 50 dan ortiq cholg'ularning tavsiflari berilgan. Kitobda birinchi marta o'zbek xalq cholg'ulari ilmiy darajada sinflashtirilgan.

Xulosa qilib muallif quyidagicha fikrlaydi: o'zbek xalq cholg'ularining musiqiy madaniyatni rivojlantirishda keng qo'llash uchun ularni qayta ta'mirlash, nota yozuvini kiritish kerak.

An'anaviy musiqa cholg'ularini o'rganish va ularda ijro etishni o'rgatish masalalari bo'yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg'ularni qayta ta'mirlash va modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrosyans olib bordilar.

A.I.Petrosyans «Cholg'ushunoslik» kitobida xalq cholg'ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi. Shu bilan bir qatorda, ularni samarali qo'llash uchun amaliy maslahatlar ham berilgan.

Ancha yillar mobaynida ta'lim uslubiyoti shakllandi. Xalq cholg'ularini qayta ta'mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko'nikmalari ishlab chiqildi.

Cholg'uda ijroning eshitish uslubidan nota yordamida ijro uslubiga o'tilishi o'quv repertuari ustida ko'p ishlashga, xalq cholg'ularida ijro maktablarini tashkil qilishga olib keldi.

Xalq cholg'u ijrochilariga ta'lim berishning uslubiy va didaktik asoslarini ishlab chiqish xuddi shu yo'nalishda olib borildi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston davlat konservatoriyasi «Xalq cholg'ulari» kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan bir qator fundamental darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlar chop ettirildi.

Xalq cholg'ularida ijrochilik maktablari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, xalq cholg'ulari orkestrini tashkil qilish va ishlash bo'yicha o'quv-qo'llanmalar yozildi. Shunday qilib, xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha musiqiy ta'limning boshlang'ich bo'g'ini uchun ta'lim asoslari shakllandi.

Har qanday talaba butun o'quv yili mobaynida yetarli miqdorda keng umumta'lim va kasbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Chunki, hammamizga ma'lumki, ko'pgina bitiruvchilarimiz o'z hayotlarini pedagogik faoliyat bilan bog'laydilar. Bu esa psixologiya, pedagogika, uslubiyot bo'yicha yaxshi tayyorgarlikni, keng dunyoqarashga ega bo'lishni talab etadi. Ammo shu paytgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan, ta'limning o'ziga xosligini ochib beruvchi, ijrochilik madaniyati yutuqlarini ifodalagan umumiy va shaxsiy uslublar ishlab chiqilmagan.

Nashr qilingan ko'pgina darsliklar va o'quv qo'llanmalarda ta'limga tor ma'noda yondoshilgan. Hamma tavsiyalar cholg'uda ijro holatiga, tovush hosil qilishning texnik uslublariga, ijrochilikni egallashga doir bo'lib, o'quv-tarbiyaviy jarayon va pedagogik etika masalalari ham birmuncha yoritilgan.

Lekin ta'limning tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy-ma'rifiy yo'nalishi, ilmiyligi va shu kabi dolzarb masalalarga kamroq e'tibor berilgan.

Oliy o'quv yurtlarida bunday uslubiyotning ishlab chiqilmaganligi ijrochilik san'ati bo'yicha ta'limning sifatiga, pedagogik tayyorgarligiga salbiy ta'sir etadi.

Uslubiyot tushunchasi o'qituvchilik nuqtayi nazaridan qaraganda ikki xil ma'noda ishlatiladi:

– uslubiyot – o'quv yurtlarida olib boriladigan nazariy kurs, o'quv fani sifatida;

– uslubiyot – o'qituvchining ish uslubi va shakllari sifatida.

Uslubiyot haqida gapirilganda, ta'limning asosiy obyektiv va subyektiv omillari yig'indisidan kelib chiqish kerak.

Uslubiyot ta'lim amaliyotining samarali uslublarini o'rganish asosida ishlab chiqiladi, ilmiy-nazariy izlanishlar jarayonida amaliyotda asoslash va umumlashtirish natijasida hosil qilinadi.

Pirovardida ikkita asosiy uslubiyot hosil bo'ladi: ya'ni **umumiy uslubiyot** va **maxsus uslubiyot**. Umumiy uslubiyot ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Maxcys uslubiyot esa ta'limning maxsus bilim ko'nikmalarini tezroq egallash uslubi va shakllarini ishlab chiqadi.

Xalq cholg'ularida ijrochilik uslubiyotini takomillashtirishni quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Zamonaviy, umumiy va musiqiy pedagogika, psixologiya va didaktika masalalarini chuqur o'rganish.

2. Maxsus uslubiyotlar natijalarini, dars berish tajribalarini o'rganish va umumlashtirish.

3. Oldingi maktablar hamda yo'nalishlarni tanqidiy tahlil qilish, buning natijasida zamonaviy ta'lim rivoji tamoyillarini ishlab chiqish.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz kerakki, bugungi kunda zamonaviy talablarga javob beruvchi o'zbek xalq cholg'ularini o'qitish uslubiyotini, ta'limning har bir bosqichiga (boshlang'ich, o'rta, oliy) alohida, o'ziga xos ravishda yondashib, kelajakda yangi avlod adabiyotlarini yaratgan holdagina kasbiy tayyorgarlikning sifatini ta'minlashimiz mumkin.

Birinchi navbatda, musiqiy maktablar, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari uchun zamonaviy talablarga javob beruvchi o'quv dasturlarini yaratish va ijrochilik san'ati madaniyatini yuqori saviyada tarbiyalash masalalarini hal etishimiz lozim bo'ladi.

Dinamika

Ijrochilik san'atining amaliyotida qo'llaniladigan vositalaridan biri bu - **dinamikadir**. Dinamika (yunoncha – *dinamikos* – kuchli) – musiqa tovushlarining qattiq yoki sekin ijro qilinishi. Dinamikada tovushni turlicha ijro etish, ya'ni bir yo'la baland yoki past, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta'kidlab, urg'u berib eshittirish va shular kabi ijro uslublari bo'lishi mumkin. Dinamikaning asosiy turlari ***forte*** (forte, nota yozuvida qisqartirilib – *f* holida yoziladi) - qattiq, kuchli; ***Piano*** (piano, nota yozuvida qisqartirib ***r*** holida yoziladi) – sekin; ***crescendo*** (kreshchendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish); ***diminuendo*** (diminuendo – tovushni asta-sekin pasaytirish). U tovush jarangi tavsifi bo'lib, tovush jarangi kuchining to'satdan yoki asta-sekin o'zgarishi, alohida tovushlarning kuch bilan ajratilib ko'rsatilishida namoyon bo'ladi.

Musiqada dinamika belgisining ahamiyati juda kattadir. U musiqiy ijroni bir xillikdan, ya'ni monotonlikdan saqlab, musiqani jo'shqin va ko'p ma'noli bo'lishiga yordam beradi. Asosiy ko'rsatkichlardan biri shuki, sozandaning ijrochilik faoliyatidagi mazmunini, musiqaning badiiy ijrosini va qay darajada yoritib berganligi bilan belgilanadi. Sozanda kompozitorning nota g'oyalarini, o'ylarini tinglovchiga yetkazib berish bilan bir qatorda, ijrochining shaxsiyatini, uning musiqiy iqtidorini, hissiyotini, ehtirosini, fikrlashini, xarakterining o'ziga xosligini ham aks ettira bilishi kerak. Shundagina ijroda yuksak badiiylikka erishiladi.

Intonatsiya

Intonatsiya (lotincha intono) – keng ma'noda: badiiy obrazni musiqa tovushlari bilan to'g'ri va toza ifoda etish. Tor ma'noda:

1. Musiqa tovushlari harakatida yuqorigi tovushlar munosabati. 2. Musiqadagi baland-past tovushlarning to'g'ri va aniq ijro etilishi.

Ayniqsa ashula aytganda yoki pardasiz cholg'ular ijrosida tovushlarni «sof» (aniq) yoki «nosof» (noaniq) eshitilishi intonatsiyada tovush balandligining to'g'ri yoki noto'g'ri ijro etilishini bildiradi.

Ijro jarayonida sozandaning toza intonatsiyalashishi, ya'ni balandligi, jarangi va tembri bo'yicha maksimal darajada aniq tovushlarni ola bilishi, uning kasbiy tayyorgarligi yetarli darajada ekanligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, ijrochining tovushlarning balandligi munosabatlarini aniq topa olishi juda qadrlidir. Amaliyotdan ma'lumki, ijrochi qancha yaxshi fazilatlarga ega bo'lmasin, cholg'uda u kuyni falsh (noto'g'ri) ijro etsa, bu badiiy taassurotni buzadi. Intonatsiyaning sofligi, – deydi mashhur ispan violonchelisti Pablo Kazals, – ijrochining sezgirligidir. Bu hissiyotni, tozalikni nazarga ilmaslik mumkin emas. Aks holda, ijrochi o'z qadr-qimmatini pasaytiradi, agarda u yaxshi musiqachi hisoblansa ham.

Intonatsiyaning sofligi musiqachi iqtidorining so'zsiz dalolati bo'lib, u o'zida muhim ijrochilik vositasi vazifalarini aks ettiradi, chunki aniq, sof va yorqin intonatsiya yordamida ijrochi musiqiy tovushlar badiiy obrazini ochib beradi.

Musiqiy intonatsiya bu murakkab jarayon, shuning uchun ham har xil cholg'ularda turlicha bo'ladi. Bu cholg'ularning konstruktiv xususiyatlariga bog'liqdir. Bu borada klavishli va torli cholg'ularni qarama-qarshi qo'yib solishtirish mumkin. Torli cholg'ularda ijrochi xohlaganicha ohang (intonatsiya) ni o'zgartirishi mumkin, klavishli cholg'ularda esa ijrochi musiqiy temperatsiya qoidalari bilan mustahkam bog'langandir.

Xullas, cholg'ularning bu xususiyatlari ularni intonatsion prinsip yordamida klassifikatsiyalashga asos bo'ladi. Bu klassifikatsiyaga ko'ra, torli cholg'ular – ixtiyoriy intonatsiyali, klavishli cholg'ular - mahkamlangan intonatsiyali, damli cholg'ular yarim ixtiyoriy yoki yarim mustahkamlangan intonatsiyali cholg'ulardir.

Milliy cholg'ularimizning qisqacha tarixi haqida

O'zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg'ularining 30 tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg'ular XX asrning 40-yillaridan keyin professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar va soz ustalari bilan

hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg'ular bo'lib, konsert sahnalarida yakkanavozlik sifatida, shu bilan birga, asosan orkestr va ko'p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqiy cholg'ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi, natijada nay, chang, rubob, dutor, g'ijjak cholg'ularining oilasi dunyoga keldi.

Nay – qadimiy puflama o'zbek xalq musiqa asbobi. Nay O'zbekistonda keng tarqalgan bo'lib, ansamblda, o'zbek xalq asboblari orkestrida muhim o'rin tutadi, yakka holda ham chalinadi. Ovoz hajmi kengligidan xalq kuylarida, maqomlarda qo'llaniladi. Tovushi baland bo'lganidan ansamblda ko'proq boshlovchilik vazifasini ham bajara oladi. Barmoqlar bilan berkitiladigan olti teshikchadan iborat diatonik tovushqatoriga ega. Umumiy ovoz hajmi **birinchi oktavadagi *lya*** dan **to'rtinchi oktavadagi *re*** ga qadar. Notalar skripka kalitida eshitilganicha yoziladi. Barmoqlar bilan teshikchalarni to'la yo yarim berkitish va turlicha puflash yo'li bilan baland, past tovushlar chiqaziladi. Nayni puflaydigan va barmoqlar bilan bosiladigan birinchi teshikcha o'rtasida yana bir teshikcha bo'lib, bunga yupqa qog'oz yopishtiriladi, buni asosan xitoylik ijrochilar qo'llashadi. Xitoyda nay g'arovdan yasalib, o'sha teshikchani g'arovdan chiqadigan yupqa parda bilan yopishadi. Bu tovushni to'lqinlatib chiqazishga yordam beradi. Nayning ikkinchi uchida doimiy ochiq turadigan to'rtta teshikcha (ikkisi ikki yonda, qolgan ikkisi ost tomonda) ayrim pardalardagi tovushlarni yumshatib berish uchun xizmat qiladi. Nayning umumiy uzunligi 500-600 mm. Nay yog'ochdan, g'arovdan va misdan yasaladi. Shunga ko'ra , «yog'och nay», «g'arov nay», «mis nay» deb ataladi.

Ko'hna rivoyatlarning birida aytilishicha, Cho'pon bobo ichi bo'sh qamishni kesib olib, unda barmoq bilan berkitib-ochadigan teshikchalar o'yibdi. Unga «Nay» deb nom qo'yibdi. Farzandlariga cho'ponlik tayog'ini topshirar ekan, nayni ham qo'shib beribdi. Ular cho'l-u biyobonlarda, yam-yashil yaylovlarda qo'y boqib, bobosi yasab bergan nayni chalib yurishibdi. Nay ohangiga «asir» bo'lgan qo'ylar podadan aslo ajralmas ekan. Yillar o'tib, bu soz shaharlik mashoyixlar qo'liga tegibdi. Ular ham nayning sehrli tovushidan lol qolishibdi. Uni yanada takomillashtirib, zeb berishibdi. Nayni qamishdangina emas, balki yog'ochdan, misdan va boshqa turdagi metallardan ham yasab ko'rishibdi. Usta naychilardan Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov va hozirgi kunda Mirza Toirov, Abdulahat Abdurashidovlar nomi barchaga ma'lum. Bu ustozlarning «Cho'li iroq», «Chorgoh», «Bir kelsin» va shu kabi ajoyib asarlarni ijro etishganda kishining ko'ngli yoziladi va ruhi ko'tariladi va a'lo kayfiyatni his etamiz.

Surnay cholg'usi ham qadimiy tarixga ega. Bu cholg'u, asosan, tantanalar, bayramlar, sayillar, to'ylarda doyra, nog'ora, karnay cholg'ulari bilan birgalikda ishlatiladi. Surnayning tovushi juda kuchli bo'lganligidan ochiq joylarda foydalaniladi. Surnay o'rik, yong'oq kabi qattiq daraxtlar yog'ochidan tayyorlanadi. Uning ustki tomonidan oltita va pastki tomonidan bitta teshik ochilgan bo'lib, ana shu teshiklarni ochish yoki yopish orqali kerakli tovushlar hosil qilinadi. Surnayda tovush hosil qilinadigan qism alohida tayyorlanib, «nay pachoq» deyiladi va har safar ijro etishdan oldin surnayga o'rnatiladi.

Bu cholg'u nay va qo'shnay cholg'ulariga nisbatan tovushi ancha baland, eniga qalin bo'lib, uzunligi esa nay bilan tengroq bo'ladi ovoz hajmi **kichik oktavadagi *lya*** dan **ikkinchi oktavadagi *mi*** ga qadar. Notalar eshitilganicha skripkalar kalitida yoziladi.

Surnay ham juda ko'hna musiqiy cholg'ulardan hisoblanib, dorbozlarning jarchisi sifatida dor o'yinlariga xalqni to'plashda xizmat qilgan. Nog'orachi, do'mbirachi, karnaychilar bilan birga, surnaychilar ham dor tagida turli kuylar ijro etishib, tomoshabinlarni xushnud etganlar. Surnay katta bayramlarda, to'ylarda o'zining jozibali, yangroq, baland tovushi bilan kishi dilini quvontirgan, ruhini ko'targan. Bu sozda nafaqat bayramona, balki mungli kuylar ham ijro etiladi. Masalan: **«Navo», «Navro'zi ajam», «Munojot», «Mushkulot»** kabi kuylarni usta sozandalar ijro etishsa, eshituvchining dilini ham quvnatadi, ham yig'latadi. Surnay ana shunday sehrli sozlardan biridir. Surnayda yuksak darajada, mahoratli ijro etishning sirlaridan biri, bu – nafas qaytarib, ya'ni uzluksiz dam berib (puflab) ijro etishdir. Bunday uslub boshqa cholg'ularda uchramaydi. Bobokalon surnaychilardan Ahmadjon surnay (Umrzoqov), Ashurali surnay, Qayum surnay va boshqalar bo'lganlar.

Hozirda yosh surnaychilarimiz ham musiqa merosini yaxshi o'rganib, milliy musiqamizga va uning rivojiga xizmatlarini qo'shib kelmoqdalar. So'nggi vaqtlarda surnay cholg'usini o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibida ham qo'llashmoqda.

Sibizg'a yoki sibiziq juda qadimiy musiqiy cholg'ulardan biri ekanligi ma'lum bo'lib, u chorvachilik rivojlangan hududlarda paydo bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Sibizg'a g'arov qamish bo'lagidan tayyorlanadi va qat'iy o'lchamlari belgilanmagan bo'ladi. Har bir ijrochi o'z ixtiyoriga ko'ra xohlagan hajmda tayyorlab, 5 tagacha teshiklar ochishi mumkin. Keyingi paytlarda unutila boshlagan bu cholg'uning qayta jonlantirilishi Surxondaryolik Nodir bobo va uning farzandlari Abdurashid bobolarning ijrochilik an'analarini davom ettirishga katta yordam berdi. Bugungi kunda katta bayram tantanalari va folklor jamoalari chiqishlarining sibizg'a tovushini yangrashi bilan boshlanishi odat tusiga aylanib bormoqda.

Sibizg'a cholg'usining takomillashtirilgan va ikki donasini birgalikda qo'shib chalinishidan hosil bo'lgan musiqiy cholg'u - **qo'shnaydir**. Qo'shnay tayyorlanadigan qamishlar bir oz yo'g'onroq va qalinroq bo'ladi. Har ikkala qamish bo'laklariga xuddi sibizg'adagi singari til ochiladi va har bir bo'lakning uzunligi va yo'g'onligi bir xil bo'lishi talab qilinadi. Kerakli tovushlarni hosil qilish uchun esa har ikkala bo'lakda ham bir xil masofada 7 donadan teshiklar ochiladi. Qo'shnay cholg'usi Xorazmda kengroq qo'llaniladi. Uning sadolanishida «g'izillashga» o'xshagan tebranish seziladi.

Qo'shnayda ijro etish uslubida ikkita naychaga barobar puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi **birinchi oktavadagi *re*** dan **ikkinchi oktavadagi *sol*** ga qadar, ayrim qo'shnaychilar **ikkinchi oktavadagi *lya, si,*** hatto bundan yuqori tovushlarni ham hosil qiladilar. Qo'shnayda o'zbek musiqasi uchun xos bo'lgan melizmlarni ijro etish juda qulaydir.

Bulaman – surnaydan ko'ra birmuncha kichikroq, qattiq yog'och tanasidan ishlangan cholg'u bo'lib, tovush hosil qilinadigan qismi surnaynikidan farq qiladi. Bulamanda «nay pachoq» o'rnida sibizg'asimon til ochilgan qamish bo'lagidan foydalaniladi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ularning yettitasi ustki tomonda va bittasi pastki tomonda bo'ladi. Bulamanning tovush tembri (kuchi) surnaynikidan pastroq bo'ladi. Shuning uchun ham bu cholg'uni ansambl tarkibiga kiritib, qo'shiq ijrochilariga jo'r bo'lishda foydalanish mumkin. Bu cholg'u Xorazmdan tashqari boshqa hududlarda deyarli ishlatilmaydi.

Karnay – o'zbek damli musiqiy cholg'ularining eng kattasi (2 metrdan oshiqroq) va eng kuchli tovush tembriga ega desak, xato bo'lmaydi. Uning hajmi kattaligini inobatga olgan holda, og'ir bo'lmasligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3 ta bo'lakni bir-biriga qo'shib kiydirish orqali yig'iladigan ko'rinishda tayyorlanadi. Bu cholg'udan surnay, doyra, nog'ora bilan birgalikda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo'lgan ansambllarda foydalaniladi. Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan. Karnay bayramlarda, tantanali marosimlarda, surnay, nog'ora va doyraga qo'shib chalinadi. Karnay ijrosida asosiy tovushdan sof kvinta yoki kichik septima intervali eshitiladi.

Chang – qadimiy musiqiy cholg'u hisoblansa-da, bizning hududimizga XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma'lumotlar bor. Chang – O'rta Osiyo xalqlarining urma-torli cholg'usidir. Changda unisonga sozlangan uchtadan tor bo'lib, ovoz diapozoni **kichik oktava sol** dan **uchinchi oktava sol#** ga qadar. Ilgari ijrochilik amaliyotida qo'llanilgan changning tovushqatori diatonik ladda bo'lgan. Notalar skripka kalitida yoziladi. Changning ustki qismi rezinka bilan qoplangan to'qmoqcha kabi maxsus ingichka ikkita cho'plar bilan urib chalinadi. XVII asrda yashagan musiqa olimi Darvishali Changiy changning juda qadimiy asbobligi va undan kasalliklarni davolashda foydalanilganini yozgan. Hozir chang qayta ishlanib, tovushqatori xromatik, ya'ni yarim tonlik qilingan. Ijrochining o'tirib ijro etishiga qulay bo'lishi uchun vintlarga o'rnatilgan uchta oyoqlari bor. Davomli sadoni yo'qotish uchun pedal ishlangan. Orkestrda ijro etish uchun changning katta-kichik (pikkalo, prima, tenor va bas) turlari ishlab chiqilgan.

Chang yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatiladi. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne'matov, Fazilat Shukurova, Tohir Sobirov, Tilash Xo'jamberdiyev kabi sozandalarning mazkur musiqiy cholg'uni targ'ib qilishdagi va ommalashtirishdagi xizmatlari beqiyosdir.

Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur Avtonom Okrugi) ning Qashqar degan joy nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg'u hisoblanadi. Musiqani endigina o'zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig'i ana shu cholg'udan foydalanishi ma'lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va

yoqimli sadoga ega bo'lib, nisbatan tez o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan cholg'ular qatoriga kiradi. Bu cholg'u yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatilishi mumkin. Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Shavkat Mirzayev, Qobiljon Usmonov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabiy kabi sozandalar ushbu cholg'u dovrug'ini yoyishda ulkan xizmat ko'rsatganlardan hisoblanadi.

Rubob-prima cholg'usi qashqar rubobi oilasini kengaytirish maqsadida yangidan yaratilgan sozdir. U **kichik oktavadagi *sol*** dan **to'rtinchi oktavadagi *mi*** tovushigacha keng diapazonga egadir.

Rubob-prima uch asosiy: kosa, dasta va bosh qismdan iboratdir. Rubob-primaning kosasi yarim sharsimon cho'zinchoq shaklga ega bo'lib, pastki qismi taxtachali qovurg'alardan yasaladi. Kosaning ustki qismi esa teri bilan qoplanadi. Kosaning va terining birikkan joyi tasma bilan jiyaklangan. Kosaning tagida to'rtta tugmacha-ilmoq bo'lib, torlarning bir uchi ana shu ilmoqlarga ilinadi. Teriga o'rnatilgan xarrak torlarini pardalar uzra kerakli balandlikda ko'tarib turadi.

Rubob-prima to'rtta torga ega: **1-ikkinchi oktavadagi *mi*; 2-birinchi oktavadagi *lya*; 3-birinchi oktavadagi *re*; 4-kichik oktavadagi *sol*.**

Rubob-prima cholg'usining dovrug'ini yoygan sozanda-ijrochilarimiz – bular Respublika tanlov laureatlari Abdusalom Malikov, Shuhrat Ziyayev, Asqar Dadamuhamedov va boshqalardir.

Afg'on rubobining ikkinchi nomi Buxoro rubobidir. Ushbu cholg'u ko'proq forsiy zabonli xalqlarda keng tarqalgan va tovushining yo'g'onligi, mayinligi bilan ajralib turadi. Biroz boshqacharoq ko'rinishdagi afg'on rubobi Hindiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, ba'zi Kavkaz xalqlari va arab davlatlarida ham uchraydi. XX asrning 40-yillaridan keyin takomillashtirilib, xromatik tovush qatoriga keltirilgan afg'on rubobi yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ijro etish uchun moslashtirildi. Afg'on rubobini targ'ib etishda mohir sozanda G'ulomqodir Ergashevning xizmatlari katta bo'ldi.

Ruboblar turiga kiruvchi sozlardan afg'on rubobining qashqar rubobidan farqi shuki, bu rubobning bo'yi, shakli qashqar rubobiga o'xshashligi juda kam.

Musiqa tili bilan aytganda, zil (ingichka), bam (yo'g'on) tovushlari mavjud. Ya'ni afg'on rubobi bam toifasiga ham kiradi. Uning ohangraboligi, tovushining o'ziga xosligi bilan tinglovchilarini o'ziga jalb qiladi. Afg'on rubobining tashqi ko'rinishi xuddi suv kemasiga o'xshaydi. Afg'on rubobining torlari qoramol ichagi va po'lat simlardan iborat. Asosiy ijro etiladigan torlaridan tashqari, yordamchi aks sado beruvchi (rezonans) torlar ham o'rnatilishi mumkin.

Sozanda afg'on rubobini bag'riga olib, tizzasiga qo'yib, mediator bilan chertadi. Rivoyatlarga ko'ra, afg'on rubobini bir zamonlar faqat ayollar ijro etishgan va qo'llaridan qo'ymay, bir paytning o'zida raqsga ham tushib ketar ekanlar.

G'ijjak – O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg'udir; kosasi qovoqdan, kokos yong'og'i (norjid yong'oqdan) va o'rtasi kovak qilinib o'yilgan yog'ochdan yasaladi. Kosaning ustiga baliq terisi yoki pufak qoplanadi. Dastasi dumaloq bo'lib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirilib ishlanadi. Kosaga o'rnatilgan temir oyoqchani ijrochi tizzasiga qo'yib, o'tirib ijro etadi. G'ijjakda avval uchta tor bo'lgan, ular kvarta bo'yicha sozlangan. Sozlanishi har doim aniq bir tovushda bo'lmay, ashulachining ovozi yo chalinadigan kuyning xarakteriga moslashgan. Ovoz hajmi bir yarim oktava oralig'ida bo'lgan. 1920-yillarda sozandalar g'ijjak ovozini baland qilish maqsadida unison qilinib sozlangan qo'shtorlar ishlatganlar. Kamonchasi ot dumidan ishlanib, ijro etish vaqtida o'ng qo'l barmoqlari bilan tortib turiladi. 30-yillarga kelib, g'ijjak cholg'usi qaytadan ishlandi: to'rtta tor joriy qilindi; bular **skripkadek** kvinta oralig'ida, **4-eng pastki yo'g'on tor kichik oktavadagi *sol*** ga, **3-tor birinchi oktavadagi *re*** ga, ***2*-tor birinchi oktavadagi *lya*** ga **va oxirgi 1-tor ikkinchi oktavadagi *mi*** ga **sozlandi; ovoz hajmi kichik oktavadagi *sol*** dan **to'rtinchi oktavadagi *lya*** ga qadar. Orkestrda ijro etish uchun g'ijjakning katta-kichik (alt, bas, kontrabas) turlari ishlangan.

Hozirda g'ijjak tojik, ozarbayjon, turkman, arman, uyg'ur xalqlarida uchraydi. Uning dastasida pardalari bo'lmaganligi sababli kerakli tovushlarni hosil qilish sozandadan yaxshi eshitish qobiliyat va yuksak mahoratni talab qiladi. To'xtasin Jalilov, Murodjon Toshmuhamedov, Abduhoshim Ismoilov, Shuhrat Yo'ldoshev, Botir Rasulov, Qahramon Nazirov kabi qator sozandalar g'ijjak cholg'usining mohir ijrochilari hisoblanadi. G'ijjak yakka soz holida, ansambl va orkestr tarkibida keng qo'llaniladi.

G'ijjak alt – asosiy g'ijjakning bir oz kattaroq qilib ishlangan turi. Torlar kvinta oralig'ida, **4-tor kichik oktavadagi *do*, 3-tor kichik oktavadagi *sol*, 2-tor birinchi oktavadagi *re* va 1-tor**

birinchi oktavadagi *lya* ga sozlanadi. Ovoz hajmi kichik oktavadagi ***do*** dan uchinchi oktavadagi ***lya*** ga qadar. Notalar alt va (baland tovushlari) skripka kalitida yoziladi.

G'ijjak bas – asosiy g'ijjakning katta qilib ishlangan turi bo'lib, violonchel vazifasini bajaradi. Torlar kvinta oralig'ida, **4-eng pastki tor katta oktavadagi *do*, 3-tor katta oktavadagi *sol*, 2-tor kichik oktavadagi *re* va 1-tor kichik oktavadagi *lya*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi **katta oktavadagi *do* dan uchinchi oktavadagi *re*** ga qadar. Notalari bas va (baland tovushlar) skripka kalitida yoziladi.

G'ijjak kontrabas – asosiy g'ijjakning eng katta qilib ishlangan turi – kontrabas vazifasini bajaradi. Torlar kvarta oralig'ida – **4-eng pastki tor kontroktavadagi *mi*, 3-tor kontroktavadagi *lya*, 2-tor katta oktavadagi *re* va 1-tor katta oktavadagi *sol*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi **kontroktavadagi *mi* dan birinchi oktavadagi *sol*** ga qadar. Notalar bas kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. G'ijjak kontrabasni kontrabasdek, tik turib chalinadi.

Doyra (o'zb. dapp, childirma, chirmanda) – o'zbek, tojik va uygur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg'u asbobdir. Diametri taxminan 400 mm, gardishi ilgarilari uzum zangidan qilingan, so'nggi vaqtlarda yog'ochni egib yoki kichik yog'och bo'lakchalarini bir-biriga ulab yasalmoqda. Doyra gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi qirqdan ortiq halqachalar taqilib, bular doyrani chalganda qo'shimcha sado beradi. Doyrada ikkita asosiy tovush bor. Biri past «bum» (Xorazmda «gup»), ikkinchisi baland «bak» (Xorazmda «toq«) deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush «bakko» yoki «bachka» («tak-tak») yoki «baka» («taka») deb yuritiladi. Doyra keng tarqalgan cholg'ulardan bo'lib, unda turli ansambl, orkestr va yakka holda ijro qilinadi. Doira jo'rligidagi raqslar o'zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Doyra tovushlari notada bir chiziqqa yoziladi.

Rivoyat qilishlaricha, qadim o'tgan zamonda bir Jarchi darakchi bo'lgan ekan. Agar biron xonadonda to'y-tomosha bo'lsa, u to'yxona egasidan ruxsat olib, ot minib, daha va ko'chalarga birma-bir kirib, to'ydan darak berar ekan. Kunlardan bir kuni dahadagi katta bir boyning to'yiga darak sola turib, ovoziga bor kuchini berib, tovushi bo'g'ilib qolibdi. Ana shunda unga doyra ko'makka kelibdi. Va shu-shu darakchi uni qo'liga olib, «baka-bum»lab, qancha dahalarni aylanmasin, aslo horimaydigan bo'libdi. Xaloyiq esa eshig-u darchalardan mo'ralab, uning chaqiriqlariga quloq tutarkan. Yigit-qizlar bu jozibali soz ohanglariga qo'l ko'tarib, yer tepinib, raqsga tushibdilar va bundan o'zlari ham zavq-shavqqa to'libdilar. Shunday qilib, doyra — bayramlar, shodiyonalar, to'ylar darakchisiga aylanibdi.

Doyra – o'zbek musiqiy ijrochiligida usul beruvchi eng asosiy cholg'u hisoblanadi, nafaqat ansambl yoki orkestr ijrosini, hatto ko'pgina yakka cholg'uchilar ijrosini ham tinglash qiyin. Bundan tashqari, doyra O'zbekistonda eng keng tarqalgan musiqiy cholg'ulardan biridir. Uni xalq ichida keng ommalashuvida Usta Olim Komilov, G'ofir Azimov, Qahramon Dadayev, aka-uka Islomovlar, Odil Kamolxo'jayev, Ilhom Ikromov kabi qator doyrachilarning xizmatlari katta.

Nog'ora – urib chalinadigan o'zbek xalq cholg'ularidan. Nog'ora sopoldan yasalib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog'oraning ko'pincha ikkitasi chalinadi; hajmi jihatidan birinchisi ikkinchisiga nisbatan kichikroq bo'ladi. Nog'ora ma'lum bir sozga ega emas. Shunga ko'ra, tovushi ham aniq bir balandlikda emas. Nog'oralardan birinchisi (kichigi) – bak, ya'ni baland, ikkinchisi – bum, ya'ni past tovush beradi. Nog'ora olov yoki oftobda qizdirilib, tovushi balandlashtiriladi. Turli bayram, sayil va ko'pchilik to'plangan yig'ilishlarda katta nog'ora ishlatiladi. Buni – ***ko's*** nog'ora deb atashadi. Nog'ora tuvaklarining teri tortilgan qismiga maxsus cho'plar bilan urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi. Nog'oraning sadosi juda kuchliligi uchun ham undan faqat ochiq havoda ijro etiladigan karnay-surnay, doyra cholg'ulari bilan birgalikdagi ansambl tarkibida foydalanishadi. Nog'orada asosan ikkita tovush (bak va bum) bo'lgani uchun ham uning notalari bir chiziqda yoziladi.

Changqobuz, Changqovuz – ikki lab orasiga qo'yilib, o'ng qo'l barmoqlari bilan chalinadigan cholg'u. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig'iga po'lat til o'rnatilgan bo'ladi, chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirilib to'lqinlantiriladi. Og'iz bo'shlig'i tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va oktava hajmi oralig'ida tovush beradi.

Changqovuz metalldan tayyorlangan juda sodda cholg'u bo'lib, sozandadan yuksak ijro mahoratini talab qilmaydi. Bundan tashqari, changqovuzda kuy ijro etish imkoniyati ham nihoyatda chegaralangan. Bu azaldan ayollar cholg'usi hisoblanib kelgan. XX asrning 60-yillariga qadar O'zbekistonning deyarli ko'p joylarida changqovuz ayollarning eng keng tarqalgan musiqiy cholg'usi bo'lgan. Changqovuz turkiy qabila xalqlarining barchalarida, shuningdek, slavyanlarda

va hatto, roman-german xalqlarida ham uchraydi. Qadimda changqovuzlar tuya suyagidan ham yasalgan, degan ma'lumotlar bor. Hozirda changqovuzning eng mohir erkak ijrochisi Surxondaryolik Juma Abrayqulov hisoblanadi.

Dutor – tojik tilida ikki tor ma'nosini beradigan, eng sevimli va ommalashgan o'zbek musiqiy cholg'ularidan biridir. Haqiqatdan ikkita torga ega bo'lgan dutorda kuy asosan birinchi torda ijro etilsa-da, ikkinchi tor o'sha kuyga doimiy qo'shilib sado berishi tufayli boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Dutorning sadosi juda mayin eshitiladi. Ba'zi cholg'ular doyra jo'rligisiz ijro etilishi qiyin bo'lsa-da, lekin dutorning o'zida usulni ijro etish imkoniyati borligi, uni yakka holdagi ijrosini qabul qilishga yordam beradi. Dutorning sadosini yaxshi eshitish uchun tanbur bilan birgalikda foydalangan ma'qul.

Dutor ikki qismdan (dasta va kosadan) iborat bo'lib, bularni birlashtiruvchi qismi «bo'g'iz» deb ataladi. Dutor kosasi o'yma yoki «qovurg'a» chalarning birlashganidan qilinishi mumkin. «O'yma dutor» Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo'llanilib, bir bo'lak tut yog'ochdan o'yib ishlanadi. «qobirg'a» li dutor ham tut yog'ochidan ishlanib, 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham yog'ochdan tayyorlanadi. Odatda dutor yasaladigan tut yog'ochi soyada quritiladi. Dutor dastasi olma yog'ochidan qilinadi va unga 13-14 ichak parda bog'lanadi. Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 mm. Ayrim joylarda 750-800 mm. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta (o'rta parda sozi), kvinta (bosh parda sozi), unison (qo'sh parda sozi) va oktavalarga sozlanadi. Dutor ansamblda va yakka soz sifatida qo'llaniladi. Dutor qaytadan ishlanib, o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga kiritilgan. Orkestrda dutorning alt, bas va kontrabas turlari qo'llaniladi.

Dutor alt – dutorning kichraytirilgan turi. Buning qopqog'i tut o'rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlar o'rniga ichak tor tortilgan. Pardalar dastani o'yib, xromatik holda doimiy o'rnashtirilgan. Torlar kvarta bo'yicha **birinchi oktavadagi *mi* va *lya*** ga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Hajmi **kichik oktavadagi *mi*** dan **ikkinchi oktavadagi *do*** ga qadar.

Dutor bas – dutorning katta qilinib ishlangan turi. Dutor-basning to'rtta tori bo'lib, bular kvarta bo'yicha to'rtinchi tor **katta oktavadagi *do*, uchinchi tor katta oktavadagi *sol*, ikkinchi tor kichik oktavadagi *re* va birinchi tor kichik oktavadagi *lya*** ga sozlanadi; ***lya*** tori ichakdan qilingan bo'lib, qolganlari metalldandir. Notalar eshitilishi bo'yicha, bas kalitida yoziladi. Ovoz hajmi **katta oktavadagi *do*** dan **birinchi oktavadagi *sol*** ga qadar.

Tanbur – O'zbekiston, Tojikiston, janubiy Xitoyning Sinszyan viloyatida (bu yerda danbur deb yuritiladi) keng tarqalgan torli tirnama qadimiy cholg'u asbob. Tanburning kosasi nok shaklida o'yilib yoki bir necha «qovurg'a»lardan yopishtirilib, bunga uzun dasta ulanadi; umumiy uzunligi 1100-1300 mm. Dastaga ichakdan qilingan parda bog'lanadi. Baland tovushlar olish uchun ichak pardalardan tashqari, qopqog'iga kichik va kalta cho'plar yopishtiriladi (buni «has parda» deb ataladi). Pardalar soni 18-20 tacha. Tovushqatori diatonik bo'lib, to'rtta (ilgarilari uchta) sim tor taqiladi. Bu torlardan 1, 2 va 4-si bir ovozli (unison) bo'lib, 3-tor kvarta, kvinta ba'zan sekunda past bo'ladi. Notalar bas va skripka kalitlarida yoziladi. Tanburning 1, 2 va 4-torlari **katta oktavadagi *sol*** ga, **3-tor esa katta oktavadagi *re*** yoki ***do*** ga, yoki ***fa*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi **katta oktavadagi *sol*** dan **birinchi oktavadagi *sol*** ga qadar.

Tanbur o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'iga kiygizilgan maxsus noxun bilan chalinadi; chalinganda faqat birinchi tor urilib, qolganlari qo'shimcha sado olish uchun foydalaniladi.

Uzoq o'tmishda bir necha turli tanbur bo'lib, shulardan biri Bag'dod tanburi. U X asrga qadar qo'llanilgan. Bag'dod tanburining pardalari va hajmi (bo'yi-rosti) o'zbek tanburiga nisbatan kam va kichik bo'lganligi uchun keyinchalik cholg'ular qatoridan tushib qolgan.

Sharq tanburlaridan bizgacha saqlanib qolgani bu setordir. Setor ham noxun, ham kamon bilan chalinadi.

Tanburda xalq musiqalarini, maqom cholg'u yo'llarini yakkanavoz sifatida ijro etish, shuningdek, yakka holda yoki xonandaga jo'r bo'lishi ham mumkin.

Tanbur cholg'usi ham boshqa o'zbek xalq cholg'ulari kabi takomillashtirilib, tovushqatori xromatiklashtirildi va orkestr tarkibiga kiritildi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. O'zbek tanburining uch tori bo'lgan, keyinchalik takomillashtirilib, yana bir tor qo'shiladi va kamon bilan chalinadigan sato deb atalmish cholg'u paydo bo'ladi.

Sato – tanburning bir ko'rinishidir. Avvalda oddiy tanburdan sato sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirda tanburning biroz kattalashtirilgan va ko'rinishi biroz o'zgartirilgan turi bo'lib ishlatilmoqda. Sato ijrosida noxun o'rniga g'ijjak va skripka cholg'ularini ijro etishda ishlatiladigan kamondan foydalaniladi. Satoning tovushi juda mayin va ulug'vordir. Unda asosan mungli va og'ir kuylar ijro etiladi. Sato – dutor, tanbur cholg'ulari bilan birgalikda va alohida holda yaxshi eshitiladi. Maxsus ovoz kuchaytirish moslamalarisiz katta ansambl va orkestrlarda ishlatilishi qiyin.

Milliy cholg'ularimiz qatoridan joy olgan sato, kamon bilan ijro qilinadigan cholg'ulardan hisoblanadi. Ammo sato noxun bilan ijro etilsa, tanburga aylanadi.

Satoning to'rtta tori bor, torlar kuylar amrida sozlanadi. Satoning tovushi inson tovushiga yaqin. Satodan chiqqan navo xuddi so'zsiz qo'shiqday yangraydi.

Sato cholg'uchilari uncha ko'p emas. 1940–1950-yillarda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrining sozandasi A.Barayev shu cholg'uda ijro etardi. Ammo satoni elimizga tanitgan, elga manzur qilgan mashhur sozanda Turg'un Alimatov bo'ladi. Sato ko'hna cholg'ular qatoriga kirib, musiqa olamida katta yangilik bo'ldi.

Qonun musiqiy cholg'usi qadimda biz yashab turgan hududimizda keng tarqalgan. Lekin XX asr boshlaridan to 1980-yillargacha mazkur cholg'u biroz unutilgan edi. Izlanuvchan sozandalar, xususan, Abdurahmon Xoltojiyevning say'i-harakati bilan bu musiqiy cholg'u madaniy hayotimizga kirib keldi. Hozirgi kunda qonun turli ansambllarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Qonun xarraklari teri ustida joylashishi, torlari plastik ekanligi, uning sadolanishini mayinlashtiradi. Qonun torlari har ikkala qo'l ko'rsatgich barmoqlariga kiydiriladigan maxsus noxun-mediator bilan ijro qilinadi. Qonun diatonik tovushqatoriga ega. Qonun torlarining uchtasi ham bir xil qilib sozlanadi. Cholg'uning o'ng tomonida joylashgan kichik xarrakchalar ana shu torlarni taranglashtirib yoki bo'shashtirib, kerakli yarim tonliklarni hosil qilishga yordam beradi.

Qonun changsimon cholg'ulardan bo'lib, cholg'uchi barmoqlariga noxun (mizrob) bog'lab, qonun torlarini tirnab chaladi. Qonun tovushi chang tovushidan farqli o'laroq, uncha baland, ya'ni kuchli tovushga ega bo'lmasa ham, uning nafis, muloyim sadosi tinglovchini o'ziga tortadi.

Ustoz Abdusattor Qonuniy, Xo'jaki Ja'fariy Qonuniy, Hofiz Boboiy Qonuniy va boshqa cholg'u ijrochilari o'z davrlarida milliy cholg'ularni asrabgina qolmay, balki ularning takomil topishida ham muhim rol o'ynaganlar. Zahiriddin Muhammad Boburning e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab cholg'uchilarning iste'dodini namoyon etishga ko'maklashgan. O'z zamonasining mohir cholg'uchilari va bastakorlari Navoiyning yordamida, homiyligida katta shuhrat qozonganlar. Qonun asosan Sharq mamlakatlari va Kavkazda keng qo'llaniladi. O'zbekistonda qonun sozi yakkanavozlik sifatida va turli ansambllarda munosib o'rnini egallagan.

Ud – yunonlarning lirasi kabi Sharq xalqlarida mashhur bo'lgan cholg'udir. Udning milodiy I asrda ham mavjudligi aniqlangan.

Surxondaryoning Dalvarzintepa degan joyida arxeologik qazilmalar natijasida topilgan sopol haykalchalarda ud cholg'usining tasviri saqlanib qolganligi ana shu musiqiy cholg'uning naqadar qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Ud cholg'usi ming yillar davomida musiqiy cholg'ularning «shohi» va eng mukammali hisoblanib kelingan. Ud cholg'usi tovushining yoqimliligi va inson ovoziga yaqinligi har doim eshituvchilarni lol qoldirib kelgan. Taraqqiyot davomida ud eng kam o'zgarishga uchragan musiqiy cholg'u hisoblanadi. O'z ko'rinishini saqlab qolish bilan birga, ud boshqa musiqiy cholg'ularning dunyoga kelishiga ham sababchi bo'lgan. Mandolina va gitara musiqiy cholg'ulari ud cholg'usidan kelib chiqqanligi haqidagi tasdiqlovchi dalillar bor. XX asrning boshlaridan to 1980-yillargacha bo'lgan davrda biroz unutila boshlagan ud cholg'usi hozirda cholg'u ijrochiligida yana qo'llanila boshladi. Arabiston yarim orolida o'sadigan va tutatilganda yoqimli hid taratadigan daraxt ham ud deb ataladi.

Eng ko'hna cholg'ulardan biri bo'lmish udning vatani fors, arab mamlakatlari bo'lib, VI asrdayoq Yaqin Sharq, Kavkaz va O'rta Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

U ilk davrida 4 torli bo'lgan. So'ng ustod Ziryob beshinchi torni ixtiro qilgan.

Udning kosasi yog'ochdan (**ud** - arab tilida «yog'och» demak), qovoqdan yasalib, dastasi kalta va pardalar bog'lanmaydi. Ud mizrobli cholg'ulardan hisoblanadi. Tovushi uncha baland bo'lmasada, o'ta muloyimligi bor. Zamonaviy ud sozining torlari besh qo'shtorlidir.

Sharqning taniqli mutafakkiri Safiuddin Urmaviy ud chalishda mohir xonanda va bastakor edi. Olim ud haqida nazariy qoidalarini bayon etdi. Udning kvartaga mos sozlangan besh qo'sh tori haqida Sheroziy, Jomiy, al-Husayniy, Marog'iy, ibn Sinolar ham ko'p risola-yu, ma'lumotlar

yozib qoldirishgan. Jomiyning «Musiqa haqida risola»sida «ud dastasining to'la chizmasi, uni sozlash haqida to'liq ma'lumotlar berilgan. Jomiy musiqaning tinglovchilarga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi. She'riyat sultoni Mir Alisher Navoiy udni yaxshi chalib, 12 maqomga o'z hissalarini qo'shgan ekanlar. Mashhur sozanda va xonanda Alishoh bilan birga ud jo'rligida maqomlarga sayqal berganlar.

Qayroq – Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida tarqalgan urma musiqa cholg'ularidan biridir.

Bir-biriga urilib chalinadigan asboblardan – qayroq, yog'och qoshiq, qo'ng'iroqchalarni (raqsga tushganda qo'l va oyoqlarga kiyiladi) eslatib o'tish mumkin.

Qayroq, suv bo'ylaridan topiladigan silliq va yupqa tosh qayroqchalardir. Raqqos va raqqosalar o'ng va chap qo'llariga juft-juft qayroqlarni ushlab, musiqa usullarini chertib, o'z raqslarini bezatib, jilo beradilar.

Qayroqda ijro etishning qulayligi uchun qayroq jufti yupqa temirlardan bo'ladi. Shunday qayroqlar raqqoslarning qo'llaridan tushib ketmaydi.

O'zbekistonda raqslar nomma-nom ataladi, jumladan katta o'yin, zang o'yini, nog'ora-doyra o'yinlari qatorida qayroq o'yini ham keng tarqalgan.

Ayniqsa, Xorazmda hozirgi davrda ham yaxshi qayroqchi raqqosa va raqqoslar bor. Juma qayroq, Ergash qayroq kabi qayroqchilar, Tamaraxonim hamda Qori Yoqubov ansambllarida birga faoliyat ko'rsatib, ular bilan birga ijodiy safar qilib, dunyo kezganlar, ushbu konsertlarda o'zbek milliy qayroq raqslarini namoyon qilishgan.

Safoyil, safoil – O'zbekiston, Tojikiston va Xitoyda keng tarqalgan shiqildoq tuzilishidagi urma cholg'u asbob. Safoyil ikki bo'lak qattiq yog'och kaltakchasidan iborat. Bu kaltakchaga ikkita temir aylanaga mayda temir halqachalar o'rnashtirilgan. Safoyilni silkitib, yelkaga urib, shovqinli, turli murakkab tovush chiqariladi. Bu cholg'u Qashqar va G'uljadan O'zbekistonga kirib kelgan. Safoyil uyg'ur xalqining milliy cholg'ularidan bo'lib, raqsga tushganda erkak raqqoslar qo'lida yelkaga urib chalinadi. Ijro etilayotgan musiqa usuliga moslaydi. Safoyil ko'proq raqslarda qo'llaniladi.

Uyg'ur xalqining sho'x qo'shiqlari, raqslaridan xabardormiz. Shu raqs turlaridan biri yigit va qiz raqsidir.

Raqs duetida albatta yigit qo'lida safoyil bo'ladi va uni zo'r joziba bilan ishga soladi.

O'zbekistonlik uyg'ur sozandalar ansambllaridan safoyil cholg'usi mustahkam o'rin olgan.

DILBAR NOZI
(Fantaziya)

Andante *Ch. Obidpur* musiqasi




mf
mp
f


mf
Poco rit.
A tempo
mp
p
mf
Poco rit.
Poco rit.
Poco accel.


molto accel.
8va
Poco rit.
(8)
Poco rit.
f
Moderato
mf
mf
mf
mp


tr
tr
tr
tr
mf
cresc.
p
tr
tr


f
mf
tr


mp
tr
tr
tr
tr
mp


Poco a poco dim.




Allegro
f


f
gliss.




tr
tr
mp
cresc.
p
cresc.
f
f
p


f
f
ff
mf
mf


tr
p
cresc.
cresc.
f
f


tr
mf
tr
dim.


dim.
[Cadenza ad lib.]
mf
p


3 3 3 3
Poco rit.
f
mf
rit.
[Andante]
p dolce


accel.
cresc.
3
3
3
3
Poco rit.
p
gliss.


Vivo
mf
mp
1.
2.
f
f
1.
2.


ff
ff

ESHVOY VA UFORI QALABANDI

(O‘zbek xalq kuyi)




mf
mf
f (p)
f (p)
mf
mf
mf
mf


p cresc.
dim.
p cresc.
mf dim.
f (p)
f (p)
legiro mf
tr
p
legiro mf
p
mf
Pizz. col legno
f
f


dim.
dim.
Ud.
p
p
attaca
f (p)


Piu mosso
p
f
p
p
p
f
mf
mf
mf
mf


p
f
semile
f
p
f
f
p
p
mf
mf


dim.
mf
dim.
mf
f (p)
f (p)
f
f
f
semile stacc.
f
f


Pizz. col legno
f
f
tr
1.
1.
2.
2.
Ud.
Piu f
Piu f




f
f
f
f
mf
mf
f
f


mf
mf
f
f
rit.
rit.
f
f

MOLDAVANCHA RAPSODIYA

A.Kudryavsev qayta ishlagan
Chang partiyasi A.Lutfullayev
tomonidan tahrir qilingan




V
f
f
f
mf
cresc.
mf
cresc.
cresc.
f


Allegretto
f
mf
V
mf
V
rit.
Moderato
mf
mf


Ad libitum
accelerando
Ad libitum
ritenuto
Allegro


sf
mf
sf


mf
Presto
mf
p
mf


mf
Pizz. col legno
p
ord.
mf
Pizz. col legno
poco crescendo
ord.
f


p
Pizz. col legno
V
rit.
V


p
accelerando
gliss.
f
mf

XAYTARMA

Andante

A.Spendiarov
(1871-1928)




rit.
Allegro non troppo ♩=184
p
p
p
f
f
tr


8va
grazioso
p grazioso
(8)
f
f
grazioso
p
p


leggiero
leggiero
espressivo
p
mf
mf
pizz.c.e. (vibrato)
gliss.
gliss.
gliss.
gliss.
espressivo
leggiero


mf
p
Poco Più mosso
f
Poco Più mosso
mf
f
mf
sf
espressivo
mf


ff
3
ff
accelerando
tr
mf
ff
tr
mf
ff

MUNDARIJA

So‘z boshi 3
Changda ijrochilik uslublari 4
Musiqiy eshitishning ahamiyati 6
Talabaning shakllanishida o‘qituvchining o‘rni 6
Xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti 9
Dinamika 11
Intonatsiya 11
Milliy cholg‘ularimizning qisqacha tarixi haqida 11

Dilbar nozi (Fantaziya) 19
Eshvoy va ufori Qalabandi (O‘zbek xalq kuyi) 37
Moldavancha rapsodiya 48
Xaytarma 57

ANVAR LUTFULLAYEV

XALQ CHOLG'ULARIDA O'QITISH USLUBIYOTI

Muharrir *H.Yusupova*
Nota muharriri *N.Umurov*
Musahhih *D.Shomahmudova*
Kompyuterda sahifalovchi *B.Ashurov*

2010-y.13.01.da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$. Tayms garniturasi. Ofset bosma.
8,0 shartli bosma toboq. Jami 250 nusxa. Bahosi shartnoma asosida.

«Musiqa» nashriyoti. Toshkent, Olmazor ko'chasi, 1.

«SIVASH» MCHJ da chop etildi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 24.

ISBN 978-9943-307-48-3